

bo`lib, mashg`ulot jarayonini bolalar uchun zavqli, qiziqarli eng muhimi o`quv materialini bolalar tomonidan tez va puxta o`zlashtirilishiga asos bo`ladi. Umuman, savodxonlikka o`rgatish jarayonida analiz-sintez usullari tizimi bolaning faol fikrlashini, bilish mustaqilligini ta'minlaydi, bolalarda kuzatuvchanlikni, ziyraklikni o`stiradi.

2-mavzu: Men -birinchi sinf o`quvchisi. So`z va gap haqida tushuncha.

Dars maqsadi:

- so`z va gap haqida ma'lumot oladilar;
- nutq va gap uzviyligi haqida tushuncha ega bo`ladilar;
- gap tuzib uning chizmasini chizishni o'rganadilar;

Tayanch so`zlar: nutq, gap, so`z, gap chizmasi.

Didaktik materiallar: Meva va sabzavotlar mulyaji, rasmlli kartochkalar.

Darsning borishi:

I. Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O`quvchilardan bugungi kun sanasi so`raladi.

Tanishuv mashqi: O`quvchilar bir-birlariga ismlarini aytib, tanishib oladilar.

Mashq avval juftlikda, so`ng sinf bilan o'tkaziladi.

- Bugun siz bilan "Tanishuv" mashqini o'tkazamiz. Partadoshingizga qarab turib oling va bir biringizga ismlaringizni aytib tanishing. Endi hammanmiz istagan 5 nafar o'rtoqlarimizni oldiga borib o'zingizni va partadoshingizni ismini ayting.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1. Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

O`quvchilar juftlikda ishlaydilar. Darslikda berilgan rasmga qarab gap tuzadilar.

Darslikda berilgan rasmga qarang va partadoshingizga rasmni gaplar bilan tasvirlab bering.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- Rasmni tasvirlashda qanday gaplar tuzdingiz?
- O`rtog`ingiz tuzgan gapni aytib bering.
- Kim ko`proq gap tuzdi?
- Qaysi gap sizga yoqtin?

Javoblar xulosalanib, yangi mavzu tushuntiriladi

2. Mavzuni tushuntirish(15 daqiqa)

Tinglab tushunish : K.Turdiyevaning “O‘quvchimga tilaklarim” she’ri o‘qib beriladi. She’r nima haqida ekanligi haqida suhbatlashiladi.

Eslatma: She’rni o‘qishni biladigan o‘quvchilarga ham o‘qitish mumkin.

Rasm asosida matn tuziladi. Bilimlar kuni haqida suhbat o‘tkaziladi. Unda bolalarga Davlatimiz tomonidan ko‘rsatilayotgan e’tibor - Prezident sovg‘alari haqida suhbatlashish tavsiya etiladi.

- 1.Bugun qanday bayram ?
- 2.Siz bu bayramga qanday tayyorgarlik ko‘rdingiz ?
- 3.Bugungi kun nimasi bilan yodingizda qoldi ?

Tuzilgan matn gaplarga ajratiladi. Gaplar esa so‘zlardan tashkil topishi aytiladi. O‘quvchilarga so‘z va uning chizmasi haqida ma’lumot beriladi.

Berilgan chizma bitta so‘zni ifodalashi tushuntiriladi

<p>2-dars</p> <p>Men – birinchi sinf o‘quvchisiman!</p> <p>Bilimlar sari boshlar yo‘lga</p> <p>Maktab degan qutlug‘ dargoh Muqaddasdir bizga har chog‘. Bilim sari boshlar yo‘lga, Aziz o‘lka, tanish yo‘lka</p> <p>Har kun erta tongdan boshlab, Shaxdam-shaxdam qadam tashlab Biz u tomon otlanamiz, Do’stlar ichra shodlanamiz.</p> <p>Kavsar Turdiyeva</p> 	<p>Se’z va gap haqida tushuncha</p> <p>So’z va gap</p> <p>[] – bitta so‘zni ifodalaydi.</p> <p>Rasmarni nomlang. Ular orasidan ortiqchasini toping. Qolgan narsalarini bir so‘z bilan ifodalang.</p>  
---	--

– bitta so'zni ifodalaydi.

Doskada gap chizmasi qanday bo'lishi tushuntiriladi. Gaplar xabar va so'roq mazmunda bo'lishiga misol keltirilishi va gap chizmaga mos bo'lishiga e'tibor qaratish lozim. Unda nutq matn gaplardan iborat ekanligi aytiladi.

Gapning chizmasi tahlil qilinadi. Chizmadagi gaplar nechta so'zdan iborat ekanligi so'raladi. Rasm asosida chizmaga mos gaplar tuziladi.



Quyidagicha matn tuzish mumkin.

Bu maktab. Bugungi kundan bolalar xursand. Ular birinchi sinfga qadam qo'ydilar.

O'qituvchi uchun eslatma

Nutq-bu odamlarning til vositasida aloqa bog`lashlaridir. Har bir kishining oz nutqi bor. Ammo ana shu nutqni bir necha tilda ifodalash mumkin.

Gap so`zlardan tuziladi. U biron fikrni tugallanganligini bildiradi. Gapning boshida ovozning ko`tarilib, oxirida pasayishi, tugallanishida esa qisqagina to`xtash qilinishi aytib ko`rsatiladi. Shuning uchun har bir gapdan so`ng nuqta (.) so`roq(?), undov (!) belgilari qo`yilishi aytiladi

Ortiqchasini top: (3 daqiqa)

Mevalar va sabzavotlar mulyajidan foydalanib didaktik o`yin o`tkaziladi. Unda 3 ta meva 1 ta sabzavot ko`rsatiladi, yoki 3 ta sabzavot 1 ta meva. Uchinchi bor darslikda berilgan rasmlardan foydalaniadi.

Darslik bilan ishlash: (7 daqiqa)

Ortiqchasini toping va qolgan narsalar nomini bir so'z bilan ifodalang.

Darslikda berilgan rasm asosida chizmaga mos gap tushish va uning chizmasini doskada o'quvchilar bilan birgalikda bajariladi.

Daftар bilan ishlash: (10 daqiqa)

Mashq daftарida berilgan rasmni bo'yang. Topshiriqlarni bajaring.

Darsga yakun yasash:

Darsda sizga nimalar yoqdi?

-Darsdan nimalarni eslab qoldingiz?

-Kishilar suhbatи nima deyiladi?

-Bolajonlar siz qanday rasmlarni bo`yadingiz?